

OILAVIY ZO'RAVONLIK VA GENDER TENGLIK

Safarova Nilufar Uvaydulloevna

*Samarqand viloyat Kattaqorxon tuman 38-umumiy
o'rta ta'lif maktabi amaliyotchi psixolog*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy zo'ravonlik va unga bir yoqlama yondashish masalasi, gender tenglik masalasida erkak va ayol tengligi, oilaviy zo'ravonlik vaziyatida psixologik intervensiya jarayonida oilada erkak kishining zo'ravonlikka uchrashi va psixologik yordamga bo'lgan ehtiyoji kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'ravonlik, gender, psixologik yordam, psixologik intervensiya, erkak va ayol.

Yangi O'zbekistonda har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasi yotadi. Huquqiy demokratik davlat zamirida birinchi navbatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi turadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi shaklida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1991 yil 30 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining navbatdan tashqari VII sessiyasida ratifikatsiya qilingan. Ushbu Deklaratsiya ratifikatsiya qilinganishi bilan mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida qator ishlar amalga oshirilib kelmoqda. 2018 yil noyabr oyida Samarqandda —Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 70 yilligiga bag'ishlangan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumida Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilinishi va ushbu deklaratsiya BMT Bosh assambleyasining 73-sessiyasi hujjati sifatida tasdiqlanishi yana bir tarixiy qadam bo'ldi. Ushbu deklaratsiyada —erkinlik, tenglik, inson huquqlarini himoya qilish g'oyalari birlamchi vazifa bo'limgan sivilizatsiya va davlatlar mavjud emasligi ta'kidlangan. 2019 yil 2 sentyabrdan O'zbekiston Respublikasining —Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to'g'risidagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 2 bob 9 moddasida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Gender asosidagi zo'ravonlik muammosi inson huquqlari, insonparvarlik harakati va xalqaro miqyosda rivojlanish sohasida e'tirof etilmoqda. Gender asosidagi zo'ravonlik oilaviy zo'ravonlik qurbonlarining sog'lig'i va ijtimoiy holatiga, shuningdek, butun jamiyatga zararli ta'sir ko'rsatadigan asosiy inson huquqlarining buzilishi sifatida tan olinadi. 2019 yil 2 sentyabrdan qabul qilingan O'zbekiston

Respublikasining —Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidalgi Qonunida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kansitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik.

An’anaviy o‘zbek oilasida gender roller modelining o‘zgarib borayotganligini kuzatish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jadallik bilan kechayotgan bugungi kunda zamonaviy erkak yaxshi ota, oilani iqtisodiy ta‘minlovchi, zamonaviy ona esa, bola tarbiyasida va uy xo‘jaligini yuritishda ayol asosiy rol o‘ynashi kerak, degan stereotip o‘rinli emas. Shunga qaramasdan, o‘zbek millati uchun oila asosiy hayotiy qadriyatlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Agar odamlardan ular uchun eng muhim qadriyatlar nima deb so‘ralsa, unda oilaning qadri juda yuqori turadi. Bugungi kunda oiladagi rollar juda o‘zgargan. Kim nima qilishi kerakligi haqida aniq ko‘rsatma yo‘q. Oilada er-xotin o‘zaro kelishgan holda rollarni o‘zgartirishlari, oiladagi rollarini qayta ko‘rib chiqishlari mumkin. Oilaviy modellar tobora xilma-xil bo‘lib bormoqda – xotin ishlaydi yoki er, ikkalasi ham ishlaydi, buvi-bobolar nafaqaga chiqib ham mehnat faoliyatlarini davom etadilar, albatta yagona standart oila modellari mavjud emas. Bugungi kunda oila avvalgidan ko‘ra ko‘proq tashqi yordamga muhtojdir.Oilani yaratishning dastlabki bosqichidagi asosiy tendensiyalar bu nikohning ongli tanlovga aylanishi, oila ichidagi rollarnigg o‘zgarishi va erkaklar zimmasidagi ijtimoiy yukning ortib borishini kuzatish mumkin.Oilaning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan erkakdan bir tomonidan, o‘z oilasini moddiy jihatdan ta‘minlashi kutiladi, lekin shu bilan birga, boshqa ijtimoiy rol paydo bo‘ladi - jamiyat ko‘p vaqtini oilasiga va bolalarini tarbiyalashga bag‘ishlashini ham erkakdan kutadi. Shu ma’noda, erkak ikki tomonlama ijtimoiy bosim ostida qolmoqda.Ayollar ham, erkaklar ham oilaviy zo‘ravonlik qurban bo‘lishlari mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha Milliy ishonch telefoni statistik ma’lumotlariga ko‘ra, taxminan har to‘rtinchchi ayol va 18 yoshdan oshgan har yetti nafar erkakdan biri oilada jismoniy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan va har ikki jins vakillarining qariyb 50 foizi maishiy psixologik zo‘ravonlikning qandaydir shakllarini boshdan kechirgan.[7]Oilaviy zo‘ravonlik muammosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Biroq, bu masala ilmiy tadqiqotlar, yondashuvlar, tushunchalar, yo‘nalishlar doirasida ma’lum bir nuqtayi nazar bilan qaraladi, asosan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka urg‘u berib, hissiy va psixologik zo‘ravonlikka kam e’tibor beriladi. Shu bilan birga, bu zo‘ravonlik turlari, qoida tariqasida, ayollar va bolalarga nisbatan ko‘rib chiqiladi va erkaklarning aynan oilada zo‘ravonlikka uchrashi bo‘yicha juda kam ilmiytadqiqot ishlari olib borilgan. Hozirgi vaqtida ayollar tomonidan zo‘ravonlikni asosan himoya qilish va o‘zini himoya qilishning zaruriy harakatlari sifatida baholash tendensiyasi mavjud, aggressiv, deviant xulq- atvorli ayollarga

nisbatan profilaktika chorasiini tanlashda ruhiy jarohatlangan erkaklarga yordam berishning "alohida" amaliyoti deyarli yo‘q. Sodir etilgan jinoyatlar ko‘rib chiqilganda ham yumshoq choralarni tanlash yoki erkakning ayolga nisbatan arizasi shunchaki e’tiborsiz qolishi mumkin.

Oilada erkaklarning zo‘ravonlikka uchrashi vaziyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar unchalik ko‘p emas. lekin ushbu muammo ijtimoiy gumanitar va huquq yo‘nalishidagi fanlarning o‘rganish obyektida aylanib bo‘lgan. A.N.Ilyashenko ayollar tomonidan zo‘ravonlik qurban ni bo‘lgan viktimologik xarakterga ega erkaklarning ko‘paygani, M. Fibert ayollarning aggressivligi tufayli erkaklar ayollardan kam bo‘lmasan holda zo‘ravonlik qurbaniga aylanishini ta’kidlagan,[9] D.V. Sinkov ayollarning erkaklarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlarini tahlil qilib, ijtimoiy muhitning salbiy ta’sirini asosiy sabab sifatida ko‘rib chiqadi - oila, tarbiya guruhi, mehnat jamoasi deb ko‘rsatadi. Karlamenkova N.Ye ayollar tomonidan erkaklarga nisbatan emotsiyal-psixologik zo‘ravonlik o‘zining shafqatsizligi, ruhiy jarohati bilan jismoniy zo‘ravonlikdan qolishmaydi deb ta’kidlaydi. Bu kabi zo‘ravonlikning erkaklar uchun bevosita oqibatlari hozirgi paytda namoyon bo‘lishida ham va uzoq kelajakda ham muammo yoki fofia emas deb qabul qilish tendensiyasi turibdi. Bundan tashqari emotsiyal-psixologik zo‘ravonlik ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdagi nazariy metodologik muammolardan biri bu tushunchasining ta’rifi bo‘yicha yagona qarashning yo‘qligi. "Emotsional zo‘ravonlik", "psixologik zo‘ravonlik" va "axloqiy shafqatsizlik" tushunchalari sinonim degan nuqtai nazar mavjud.[2] Shu bilan birga, ba’zi mualliflar emotsiyal va psixologik zo‘ravonlik tushunchalarini ta’riflab birinchisi emotsiyal sohaga ta’sir qiladi, ikkinchisi esa umuman shaxsning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi deb e’tirof etadilar.

Zo‘ravonlikning o‘zi "shaxsga nisbatan zo‘ravonlik bilan hujum qilish" deb ta’riflanadi va odatda jismoniy hujumlar bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi, ammo "verbal hujum" va "psixologik hujum" kabi tushunchalar keng tarqalgan.[10] Shaxsga nisbatan hissiy-emotsional zo‘ravonlik - bu odamda hissiy stress holatini keltirib chiqaradigan har qanday harakat. Shu bilan birga, hissiy haqorat ushbu konsepsiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Psixologik zo‘ravonlik - bu shaxsga nisbatan uning rivojlanishi va shaxsiy salohiyatini ro‘yogda chiqarishiga to‘sinqilik qiladigan xatti-harakatlardir. Xaidov S.K o‘tkazgan kontent tahlili asosida, erkaklar hissiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq muloqotdagi e’tiborsizlik, muammoli masalalarini muhokamaqilishni istamaslik, yon berishga doimiy talab, shaxsiy haqorat, erkak sifatida uning qadr-qimmatini kamsitish, shantaj, haqoratlash, salbiy shaxsiy baholash, - ishbilarmonlik fazilatlarini salbiy tanqid qilish kabilarni ko‘rsatishgan. Psixologik zo‘ravonlikda esa asossiz tez-tez nizolar, turli vaziyatlarda xatti-harakatlarning oldindan aytib bo‘lmaydiganligi, faqat o‘z fikrini hurmat qilish, aybdorligidan qat’iy nazar uzr so‘rashni doimiy talab qilish, barcha

oilaviy muammolar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, xizmatlari, muvaffaqiyatlari va yordamlarini tenglashtirish, namoyishkorona xulq-atvor, oilani bola bilan tark etish tahdidlarni (bolalari bo‘lgan erkaklarda) ko‘rsatganlar. Bundan tashqari, erkaklar kamdan-kam hollarda himoya uchun xuquq tartibor organlariga murojaat qilishadi. Bunday xatti-harakatlarning motivatsiyasi juda oddiy bo‘lib, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq standartlaridan kelib chiqadi va u dunyoqarash qatlamini o‘z ichiga oladi.

Oilada zo‘ravonlikka uchrash fakti yuzasidan ichki ishlar organlariga ariza berishdan boshlab, jamiyatda erkaklar xaqida shakllangan kuchli jins vakillari sifatidagi stereotiplari saqlanib qolishi bilan birga erkaklarni psixologiyasidagi ayolning undan qasos olish qo‘rquvi, bolalar bilan aloqani yo‘qotish qo‘rquvi, do‘sstar yoki militsiya, atrof muhit tomonidan salbiy, istehzoli reaksiyadan hadiksirash kabi sabablarni ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida jabrlanuvchi turmush o‘rtog‘i o‘zgarishiga umid qiladi. S.A Timko., V.P Timkolar fikricha, bu xatti-harakatlar oilaviy zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan ayollarning xatti-harakatlariga juda o‘xshashdir.

Oilaviy va gender zo‘ravonlik mavzusi bugungi kunda O‘zbekistonda dolzarb muammolar safidan o‘rin olib, tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, F.A. Akromova —Oiladagi zo‘ravonlik profilaktikasi va ijtimoiy psixologik reabilitatsiyal, T.K. Norboyeva —Xotin-qizlar ijtimoiy mavqeini mustahkamlashda va samarali ijtimoiy himoya qilish|| X.Sh. Ziyavutdinova —O‘zbek oilalaridagi ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning ijtimoiy psixologik xususiyatlari va sabablarini o‘rganish||, X.O.Ziyayeva —Zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish|| kabi mavzularda ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borganlar Ayollardan farqli o‘laroq, erkaklar oiladagi zo‘ravonlikka kamroq duchor bo‘lishadi. Va bunday holatlar kamdan-kam hollarda ma’lum, chunki erkaklar o‘zları aytmaydilar: ular zaif ko‘rinishni xohlamaydilar va uyaladilar. Avvalo, oiladagi erkaklar turmush o‘rtog‘i yoki birga yashovchi tomonidan erotsional va psixologik zo‘ravonlikka duchor bo‘lishadi. Jismoniy zo‘ravonlik kamroq darajada sodir bo‘ladi. Bunday holat ko‘plab Yevropa mamlakatlarida ham sodir bo‘ladi. Fransiyada agar erkak politsiyaga xotini uni kaltaklaganini aytib, dalil bilan kelsa, har ikkinchi erkak uning yuziga kuladi va shikoyatni qabul qilish rad etiladi. Fransiyada jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurbanlarining 28 foizi erkaklardir.[3]

Yevropa Ittifoqining Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Istanbul Konvensiyasining erkaklarga nisbatan zo‘ravonlikni ham hisobga olgan holda "Yevropa Ittifoqining Asosiy Huquqlar Xartiyasi "Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik barcha sohalarda ta’minlanishi kerak"ligini e’tirof etadi.[4] Ayollar tomonidan zo‘ravonlikning

namoyon bo‘lishini ma’lum darajada zamonaviy ijtimoiy rollar bilan izohlash mumkin: oilada moddiy farovonlikni ta’minalash, erkakning ishlashni istamasligi, ayollarning ko‘pincha erkaklar muhitida ishlashi, agressivlik bilan pul topishga intilishi va raqobatlashish bilan birga ayollarning erkaklarga moddiy ta’minot borasida haddan ziyod talablar quyishi va boshqalar. Har qanday odam kaltaklanishi mumkin: erkaklar ham, ayollar ham. Amaliyotda, xotin eriga biror buyum irg‘itib jiddiy jarohatlar yetkazgan holatlarni kuzatish mumkin. Qator tadqiqotchilar va amaliyotchilar ayollarga nisbatan zo‘ravonlik tizimli ravishda, erkaklarga nisbatan – vaziyatli, oilaviy janjal paytida sodir bo‘ladi deb ta’kidlashadi. Lekin munosabatlarda ustunlikka erishish uchun tizimli ravishda harakat qilinar ekan, demak erkaklar ham tizimli ravishda zo‘ravonlikka uchrashi mumkin.

Ayol ayniqsa emotsiyal jihatdan ta’sir qiladi. Erkakga nisbatan zo‘ravonlikning jismoniy fakti ko‘pincha u spirtli ichimlikka mukkasidan ketganida sodir bo‘ladi. Ayol, uning ichkilikbozligidan azob chekayotgan bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida erkak ustidan hukmronlik qila boshlaydi. U rahbar bo‘lishni xohlayotganini to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunmaydi. U hatto erini alkogolizmdan davolaydi va unga yordam berishga harakat qiladi. Ayol uzoq vaqt muloqotdan mahrum bo‘lib, aytaylik, u faqat uy bekasi va eridan faol muloqotni talab qilishga urinadigan holatlar ham bor. Bu vaziyatda ayol doimiy ravishda eridan nolishi, uni kamsitishi, xaqorat qilishi, hatto unga kim uchrashish yoki uchrashmaslikni o‘zi hal qilishi mumkin.

Erkak kishi bir necha sabablarga ko‘ra o‘zini yomon his qiladigan munosabatlarni buza olmaydi: u bolalari bilan aloqani yo‘qotishdan, jamiyat tomonidan, ayniqsa do‘satlari va qarindoshlari tomonidan tushunmovchilikdan qo‘rqadi va u ham yolg‘iz qolishni xohlamaydi. Erkak ham ayol kabi yordam olish huquqiga ega, bu yerda gender kamsitishlari qabul qilinishi mumkin emas, shu bilan birga erkaklar uchun yordam so‘rash uyat emasligi, vaziyatni hal qilish uchun psixologni jalg qilish g‘oyasini yetkazish muhim va zarurdir. Xalqaro tajribaga qaraydigan bo‘lsak, AQSH va Germaniya, Fransiya, Shveysariyada erkaklar uchun krizis markazlari va ishonch telefonlari mavjud. Erkaklarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik juda yashirin va ko‘pincha shaxsiytabiatning psixologik va hissiy ta’sirida namoyon bo‘ladi, bu har doim ham profilaktika obyekti bo‘lishi mumkin emas. Shunday qilib, afsus bilan aytishimiz kerakki, O‘zbekistonda erkak kishiga nisbatan oiladagi zo‘ravonlik muammosi Yevropa mamlakatlari, AQSHga qaraganda muammo sifatida qaralmayapti.

O‘zbekistonda erkaklarga nisbatan oiladagi zo‘ravonlikning past darajasi quyidagi omillar bilan bog‘liq: erkaklarga nisbatan zo‘ravonlik muammolari haqida gapirish noodatiy hol hisoblanishi; erkaklarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish buyicha chora- tadbirlar umuman amalga oshirilmagan; erkaklarning himoya va

yordam so‘rab huquqni muhofaza qilish organlariga, sudga, psixolog konsultatsiyasiga murojaat qilishni istamasligi, zo‘ravonlik holatini erkaklik g‘ururi ostiga berkitishlari;

ayollarning deviant xulq-atvorida psixologik, hissiy zo‘ravonlikning ustunligi va odatda qonunchilikda jazo belgilanmasligi; ayolning erkakka nisbatan hissiy va psixologik zo‘ravonligi nafaqat uning shaxsida buzilishlariga olib keladi, balki uzoq muddatda bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga ham salbiy ta’sir qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda ayollarning erkaklarga nisbatan zo‘ravonlik xarakatlarini aniqlashni chuqurroq o‘rganish va tushunishning ilmiy va amaliy ehtiyoji shubhasiz bo‘lib qolmoqda, uning muhim qismi oila sohasida amalga oshiriladi. O‘z navbatida, oilaviy munosabatlar hamshaxsning shakllanishida, ham uning rivojlanishidagi og‘ishlarda, shu jumladan boshqalar uchun xavfli bo‘lgan xatti-harakatlarning paydo bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi. Oiladagi zo‘ravonlik bo‘yicha amalga oshirilgan manbalar tahlili va olib borilgan tadqiqot asosiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

Birinchidan, yuqorida muhokama qilingan tadqiqotlarning kamchiliklari va cheklovleri ushbu mavzu bo‘yicha keyingi miqdoriy va sifat tadqiqotlar zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, oilada ayollar kabi erkaklar ham zo‘ravonlikka uchrashi gender tenglik nuqtai nazardan psixologik, xuquqiy va ijtimoiy yordam olish xuquqiga egaligini institutsional darajaga ko‘tarish, yordam berish bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarurligini taqozo etmoqda. Bu nafaqat ayollar, balki erkaklar uchun ham oilaviy zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun maxsus profilaktika choralarini ishlab chiqish demakdir.

Albatta, ayolning o‘z turmush o‘rtog‘iga nisbatan zo‘ravonligi oiladagi salbiy ijtimoiy-psixologik iqlim fonida o‘zini namoyon qiladi, bu ham ijtimoiy omillarning ta’siri, ham ayol shaxsining individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan, gender tenglik va gender zo‘ravonlik mavzusida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lib, ularning asosiy vazifasi konstruktiv hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, sherik bilan birga yashashdan ma’naviy qoniqish muhimligini anglash bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining —Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida Qonuni// O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ562-son.
2. Buzina A.A. Sravnitelniy analiz predstavleniy ob emotSIONALnom oskorblenii i emotSIONALnom nasili / A.A. Buzina // Subyekt jiznedeyatelnosti v sovremenном obshestve. Vip. 12: materiali Vserossiyskoy nauchnoy konferensii studentov, aspirantov i molodix uchenix (Arxangelsk, 25 aprelya 2019 g.) / sost. i otv. red. Ye.V. Kazakova; Min-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, FGAOU VO

«Sev.Arkt.) feder. un-t im. M.V. Lomonosova», Vissz. shk. Publishing house "Sreda" Arxangelsk: ID SAFU, 2019. – S. 5–9.

3. Gaël Simon. Les violences conjugales à l'encontre des hommes, un sujet encore tabou// <https://france3-regions.francetvinfo.fr/paris-ile-de-france/>. Murojaat etilgan sana:14.07.2023
4. Laurent Roustan. En Europe, les hommes seraient autant victimes de violences conjugales que les femmes//<https://www.centreppresseaveyron.fr/2023/01/09/>. 14.07.2023
5. Malkina-Pix I.G. Psixologicheskaya pomosh v krizsnix situatsiyax / I.G. Malkina-Pix. – M.: Eksmo, 2008. – 298 s
6. Sinkov D.V. Xarakteristika poterpevshix ot jenskoy prestupnosti i rol jerty v determinatsii prestupnogo povedeniya jenshin (po materialam Vostochno-Sibirskogo regiona) / D.V. Sinkov // Pravo: teoriya i praktika. M.: Tezarus, 2003. № 3. S. 56–60. 2019 g.) / sost. i otv. red. Ye.V. Kazakova; Min-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, FGAOU VO «Sev.Arkt.) feder. un-t im. M.V. Lomonosova», Vissz. shk. Publishing house "Sreda" Arxangelsk: ID SAFU, 2019. – S. 5–9.
7. Statistikadomashnegonasiliya//<https://www.thehotline.org/stakeholders/domestic-violencestatistics/>. Murojaat etilgan sana:14.07.2023
8. Ilyashenko A.N. Osnovnie cherti nasilstvennoy prestupnosti v seme / A.N. Ilyashenko // Sotsiologicheskiye issledovaniya. 2003. № 4. S. 85–91.
9. Fiebert M.S. Women who initiate assaults: The reasons offered for such behavior / M.S. Fiebert, D.M.Gonzalez // Psychological Reports. 1997. № 80. P. 583-590.